TA’LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR
Vol 3. No 5,

YAPON TILI O’RGANUVCHILAR UCHUN KANJI O’RGANISHDAGI QIYINCHILIKLAR

Maxmudova Muyassar Murodjon qizi
O’zDJTU, Sharq filologiyasi fakulteti
Filologiya va tillarni o’qitish (yapon tili)
4-bosqich talabasi
muyassarmaxmudova0927@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yapon tilini o’rganish jarayonida kanjilarni o’zlashtirish bilan bog’liq asosiy qiyinchiliklarni tahlil qilinadi. Xususan, kanjilarning bir necha o’qilishiga ega bo’lishi, shaklan bir-biriga o’xshashligi hamda ularning ma’nosini to’liq anglamasdan yodlash bilan bog’liq muammolarga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, mazkur qiyinchiliklarni bartaraf etishda muntazam takrorlash, kanjilarni so’z va tarkibda o’rganish, belgilarni o’zaro taqqoslash usullardan foydalanish imkoniyatini ko’rib chiqadi. Maqolaning maqsadi kanji o’rganish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradigan usullarni yoritishdan iborat.*

Аннотация: *В данной статье анализируются основные трудности, возникающие в процессе освоения кандзи при изучении японского языка. В частности, особое внимание уделяется наличию нескольких вариантов чтения одного иероглифа, визуальному сходству некоторых кандзи, а также проблемам, возникающим в результате механического запоминания без полного понимания их значения. Кроме того, в статье рассматриваются способы преодоления этих трудностей, включая регулярное повторение учебного материала, изучение кандзи не изолированно, а в составе слов и словосочетаний, а также сравнение визуально похожих иероглифов. Основная цель статьи заключается в рассмотрении эффективных методов, способствующих повышению результативности процесса изучения кандзи.*

Abstract: *This article analyzes the main difficulties encountered in the process of learning kanji when studying Japanese. In particular, it focuses on the fact that a single kanji character may have several readings, some kanji characters have visually similar forms, and problems may arise from memorizing characters mechanically without fully understanding their meanings. Furthermore, the article explores ways to overcome these difficulties, including regular revision of learning materials, studying kanji in the context of words and phrases rather than in isolation, and comparing visually similar characters. The main objective of this article is to examine effective methods that contribute to making the kanji learning process more efficient.*

Kalit so’zlar: *kanji, hiragana, katakana, romaji, yapon tili, ta’lim metodlar, on’yomi, kun’yomi, mexanik yodlash.*

Ключевые слова: кандзи, *хирагана, катакана, ромадзи, японский язык, методы обучения, онъёми, кунъёми, механическое запоминание*.

Keywords: *kanji, hiragana, katakana, romaji, Japanese language, teaching methods, on’yomi, kun’yomi, mechanical memorization.*

Bugungi kunda xorijiy tillarni o’rganish jadal rivojlanmoqda va shu bilan birga yozuv tizimini o’rganish o’zlashtirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Yapon tili o’ziga xos yozuv tizimiga ega bo’lib, unda hiragana, katakana, romaji va kanji belgilaridan foydalaniladi. Ushbu yozuv tizimlari orasida kanjilarni o’rganish alohida e’tibor talab qiladi. Chunki kanjilar nafaqat so’zlarning yozilishida, balki ularning ma’nosini anglash va yozma matnlarni tushunishda ham muhim ahamiyatga ega. Kanjilarni o’zlashtirish jarayonida o’rganuvchilar turli qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ayrim kanjilarning bir necha o’qilishi mavjudligi, belgilar va shakillarning murakkabligi va o’zaro o’xshashligi ularni eslab qolishni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, kanjilarni ma’nosi va qo’llanishini tushunmasdan, faqat mexanik ravishda yodlash o’rganilgan bilimlarni uzoq muddat saqlashga to’sqinlik qilishi mumkin.

Sadao Otsuka va Toshiya Murai tomonida olib borilgan tadqiqotda kanji bilimi uchta asosiy yo’nalish – o’qish, yozish va tushunish bilan bog’liq ko’nikmalar orqali o’rganilgan. Bu yondashuv kanjini o’zlashtirish faqat belgining tashqi ko’rinishini eslab qolishdan iborat emasligini ko’rsatadi.

Maqolaning maqsadi – yapon tilida kanji o’rganish jarayonidagi asosiy qiyinchiliklarni tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishga yordam beradigan samarali usullarni ko’rib chiqishdan iborat.

Kanji o’rganishdagi asosiy qiyinchiliklardan biri ayrim belgilarning turli o’qilishlarga ega ekanligidir. Yapon tilida kanjilarning o’qilishi ko’pincha so’z tarkibiga va qo’llanish matniga bog’liq. An’anaviy ravishda ularning o’qilishlari on’yomi va kun’yomi tushunchalari orqali izohlanadi.

On’yomi xitoy tilidan o’zlashgan so’zlarning o’qilish nomi, kun’yomi esa sof yaponcha so’zlarga moslashtirilgan, yaponcha ma’noga asoslangan kanji o’qilishidir. Biroq har bir kanjining barcha o’qilishini alohida yodlash har doim ham yetarli bo’lmaydi. O’rganuvchi kanjining muayyan so’z tarkibida qanday o’qilishini ham bilishi zarur.

Masalan, “生” kanjisi 「先生」（sensei）- “o’qituvchi” so’zida boshqa, 生まれる (umareru) – “tug’ilmoq” so’zida esa boshqa o’qilishda qo’llanadi. Shu sababli kajini alohida belgi sifatida emas, balki so’zlar bilan birgalikda o’rganish muhimdir.

Shakli o’xshash belgilarni o’zaro taqqoslash samarali o’rganish usullaridan biridir. Bunda kanjilarning farqli chiziqlari, qisimlari va ma’nolariga alohida e’tibor berish kerak. Masalan, belgilarini bir sahifada yozib, ularning farqlarini belgilash mumkin. Shuningdek, kanjilarni tarkibiy qisimlarga ajratib o’rganish, belgilarni xotirada saqlash uchun yozish tartibini mashq qilish foydali bo’ladi.

Kanjilarni samarali o’rganish uchun uning shakli, ma’nosi,o’qilishi va qo’llanilishini birgalikda o’zlashtirish lozim. Yangi kanjini o’rganganda u qatnashgan so’zlarni lug’atdan

topish, sodda gaplar tuzish va matn ichida ko’rib o’qish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, takrorlashni har kuni davomiy bajarish kerak. Masalan, bitta yangi o’rganilgan kanjini har kuni bir hafta davomida takrorlashi lozim. Bunda kanjilarni harakat belgilari bilan yodlab qoladi. Hiroki Iwaya tomonidan 2025-yilda e’lon qilingan tadqiqot hisobotida o’rganuvchilarning kanji o’rganish usullarini tahlil qilish va o’z faoliyati haqida mulohaza yuritish strategiyalarning xilma-xilligini rivojlantirish bilan bog’liq ekani ko’rsatilgan. Bu esa o’rganuvchining o’ziga mos usulini aniqlashi va o’rganish jarayonini mumtazam baholab borishi muhimligini anglatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, yapon tilida kanjilarni o‘rganish bir nechta o‘qilish usuli, shakliy o‘xshashlik va ma’no xususiyatlari sababli muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bu qiyinchiliklarni yengish uchun kanjilarni shunchaki yodlash emas, balki ularning ma’nosi, o‘qilishi va qo‘llanilishini birgalikda o’rganish muhimdir. Kanjilarni samarali o‘zlashtirishda muntazam takrorlash, o‘xshash belgilarni taqqoslash, so‘z va gaplar orqali mashq qilish hamda matnlarni o‘qish katta ahamiyatga ega. Har bir o‘rganuvchiga mos usullarni tanlash va izchil mashq qilish kanjilarni yaxshiroq eslab qolish hamda ulardan to‘g‘ri foydalanishga yordam beradi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. Otsuka S, Murai T. “The multidimensionality of Japanese kanji abilities” Scientific Reports, 2020. 10, Article 3039. https://doi.org/10.1038/s41598-020-59852-0
2. Kim Tuyen, T. T. (2019). Survey research on kanji learning strategies of Japanese learning students. VNU Journal of Foreign Studies, 35(5). https://doi.org/10.25073/2525-2445/vnufs.4424
3. Mulekova L.R. “Kanji o’qitishni takomillashtirish: yapon iyerogliflarini o’rgatishdagi to’siqlar, usullar va innavatsion yondashuvlar” Alfraganus xalqaro ilmiy jurnali, 2026.3(5),17-23. https://journals.afu.uz/index.php/jassh/article/view/10493
4. Xolboyeva F. “Yapon tili tarixi hamda kanjilarning kelib chiqishidagi o’xshatishlar”, Journal of Analytical Synergy and Scientific Horizon, 2025. 1(3),9-11. https://universalpublishings.com/index.php/jassh/article/view/10493
5. Iwaya H. “How reflective activities transform kanji learning strategies: Focusing on strategy variety and levels of processing”, The Journal of Japanese Language Education Methods, 2025. 32(1), 94-95. https://doi.org/10.19022/jlem.32.1_94